

UO'K(UDC, УДК): 81–26

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PEUR / QO'RQUV KONSEPTIGA KIRUVCHI PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIK TAVSIFI⁸

Davletov Kamaraddin Kurbonboyevich

Urganch davlat universiteti,

tayanch doktoranti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: k.k.davletov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillarida qo'rquv konseptini (*peur/ qo'rquv*) ifodalovchi paremiologik birliklarning lingvomadaniy va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning **maqsadi** ikki tilda mavjud maqol, matal, aforizm va boshqa turg'un birikmalarda qo'rquv hissining qanday talqin etilishini aniqlash va ularning madaniy–pragmatik mazmunini ochib berishdir. Qo'rquv konseptining paremiologik verbalizatsiyasini aniqlash, paremiologik birliklarni mavzu, semantika va funksiyalar bo'yicha tasniflash, fransuz va o'zbek madaniy kontekstidagi umumiy va farqli jihatlarni ko'rsatish masalalriga to'xtalinadi. Hozirgacha qo'rquv hissining xalq donoligidagi ifodasi va uning pragmatik funksiyalari yetarlicha tizimli o'rganilmaganlik muammosi yoritiladi. Tadqiqotda lingvomadaniy, qiyosiy–tahliliy va semantik tahlil usullari qo'llanildi. **Natijalar** shuni ko'rsatdiki, fransuz maqollarida qo'rquv ko'pincha falsafiy va psixologik mazmunda ifodalanadi, o'zbek maqollarida esa u axloqiy–nasihat shaklida namoyon bo'ladi. Qo'rquv – bu universal emotsional konsept bo'lib, u har bir xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va tajribasida o'ziga xos talqinlarga ega. Bu maqola til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Paremiya, qo'rquv, *peur*, lingvomadaniyat, semantika, pragmatika, maqol, frazeologik birlik, zoomorfizm, madaniy kontekst.

Received: October 17, 2025

Accepted: October 23, 2025

Available online: February 25, 2026

⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Davletov K. Fransuz va o'zbek tillaridagi peur / qo'rquv konseptiga kiruvchi paremiologik birliklar semantik tavsifi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 107-123.

THE SEMANTIC DESCRIPTION OF PAREMIOLOGICAL UNITS RELATED TO THE CONCEPT OF *PEUR* / *QO‘RQUV* IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Davletov Kamaraddin

Kurbonboyevich

Urgench State University,

doctarant,

Urgench, Uzbekistan

E-mail: k.k.davletov@gmail.com

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the linguistic, cultural, and semantic features of paremiological units expressing the concept of fear (*peur*/ *qo‘rquv*) in French and Uzbek. The aim of the research is to identify how the feeling of fear is interpreted in proverbs, sayings, aphorisms, and other fixed expressions in the two languages, as well as to reveal their cultural–pragmatic meanings. Objectives: (1) To determine the paremiological verbalization of the concept of fear. (2) To classify paremiological units according to their themes, semantics, and functions. (3) To highlight similarities and differences in the cultural contexts of France and Uzbekistan. The problem lies in the fact that, up to now, the expression of fear in folk wisdom and its pragmatic functions have not been systematically studied. Methodology: linguistic–cultural, comparative–analytical, and semantic methods of analysis were used. The results showed that in French proverbs, fear is more often expressed in a philosophical and psychological manner, whereas in Uzbek proverbs it is manifested in a moralizing and didactic form. Conclusion: fear is a universal emotional concept that receives its unique interpretation in the worldview, mentality, and experience of each nation. This article contributes to a deeper understanding of the relationship between language and culture.

KEY WORDS

Paremia,
qo‘rquv, *peur*,
linguoculture,
semantics, pragmatics,
proverb, phraseological
unit, zoomorphism,
cultural context.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К КОНЦЕПТУ *PEUR* / *QO'RQUV*, ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Давлетов Камарадин Курбонбоевич

докторант (базовая докторантура)

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

E-mail: k.k.davletov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурных и семантических особенностей паремиологических единиц, выражающих концепт страха (*reur* / *qo'rquv*) во французском и узбекском языках. Цель исследования – выявить, как чувство страха интерпретируется в пословицах, поговорках, афоризмах и других устойчивых выражениях двух языков, а также раскрыть их культурно-прагматическое содержание. Задачи: (1) Определить паремиологическую вербализацию концепта страха. (2) Классифицировать паремиологические единицы по тематике, семантике и функциям. (3) Показать общие и отличительные черты в культурном контексте Франции и Узбекистана. Проблема заключается в том, что до настоящего времени выражение чувства страха в фольклоре и его прагматические функции не были изучены системно. Методология: использованы лингвокультурный, сравнительно-аналитический и семантический методы анализа. Результаты показали, что во французских пословицах страх чаще интерпретируется в философском и психологическом ключе, тогда как в узбекских он представлен в нравственно-назидательной форме. Вывод: страх – это универсальный эмоциональный концепт, который в мировоззрении, менталитете и опыте каждого народа получает свое уникальное толкование. Данная статья способствует более глубокому пониманию взаимосвязи между языком и культурой.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Паремия, страх, *reur*, лингвокультура, семантика, прагматика, пословица, фразеологическая единица, зооморфизм, культурный контекст.

KIRISH

“Paremiya” atamasi, odatda, maqollar, naqlar, hikmatli soʻzlar, aforizmlar va frazeologik birliklar kabi turgʻun iboralarga nisbatan qoʻllaniladi. Ularning barchasini umumiy xususiyat – hikmat maʼnosi birlashtiradi. Paremiyalar tilshunoslikning “paremiologiya” deb nomlangan sohasida oʻrganiladi. “Paremiologiya” yunoncha “paroimia” (“maqol”), “oismos” (“yoʻl”), va “logie” (“ilm”) soʻzlaridan kelib chiqqan (Le Petit Robert, 2004, 125).

Ayrim mualliflar (Бабаскина, 2002, 37; Красавский, 2001, 58; Коробка, 1999, 42) konseptlarning frazeologik verbalizatsiyasi vositalaridan biri sifatida maqol va matallarni ham koʻrsatishadi. Biroq ushbu tadqiqotda D.O. Dobrovolskiy, V. N. Teliya va A. B. Feoktistova kabi olimlarning qarashlariga tayanildi va maqol hamda frazeologik birliklar alohida til birliklari sifatida ajratiladi. Shunga qaramay, ularning har biri umumiy semantik–pragmatik asosga ega ekanligi taʼkidlanadi va lingvomadaniy jihatdan til boyligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Paremiologik birliklar ming yillar davomida odamlar tomonidan yaratilgan, shuning uchun ularni tadqiq qilish konseptni diaxronik shakllanish nuqtai nazaridan oʻrganishga maʼlum hissa qoʻshadi. Aynan tilning paremiologik fondida koʻp asrlik maʼlumotlar toʻplanadi va qoʻrquv konseptining lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari aniq koʻrinadi. Uzoq yillik ilmiy izlanishlarga qaramay, paremiologik birliklarga kiruvchi maqol, matal, naql, qanotli iboralar, aforizmlar, hikmatli soʻzlar orasidagi aniq farqlarni belgilash masalasi bugungi kungacha ochiqlicha qolmoqda. Koʻpgina tadqiqotchilar ularni sintaktik toʻliqlik tamoyili va “paremiologik birliklar” atamasi ostida birlashtiruvchi xususiyatlar asosida farqlaydilar.

Bu soha frazeologiyadan biroz chetda qolgan boʻlsa–da, paremiologlar va frazeologlarni doimo qiziqtirib kelgan. *Gonsales Rey* tomonidan qayd etilgan paremiologiya sohasini aniq chegaralash qiyin ekanligini tan oladi: “*Biz paremiologik olamni tashkil etuvchi elementlarning aniq tushunchasiga ega emasmiz. Hatto baʼzi bilimdonlar qadimgi va zamonaviy olimlar ham maqollar*

olamining lingvistik chegaralarini aniq belgilay olmaganini ta'kidlagan” (González Rey, 2002, 57).

Frazeologlar ham bu sohaga nisbatan shubha bilan qaraydilar. Ayrimlar (masalan, Zuluaga, 2001, 88) paremiyalarni frazeologik ifoda to'plamlariga kiritish tarafdori bo'lsa, boshqalar (masalan, Cazares & Wotjak, 1998, 103) paremiyalarni ikki guruhga bo'ldi: umumiy paremiyalar va terminologik paremiyalar. Sevilya Munyos ham bu ikki holatni (paremiyalar va frazeologik iboralar) o'rganib, ularni solishtirgan va ularni bog'laydigan umumiy jihatlarni topishga harakat qilgan (Sevilla Muñoz, 2003, 119).

Tadqiqot metodlari. Paremiologik birliklar ming yillar davomida odamlar tomonidan yaratilgan, shuning uchun ularni tadqiq qilish konseptni diaxronik shakllanish nuqtayi nazaridan o'rganishga ma'lum hissa qo'shadi. Aynan tilning paremiologik fondida ko'p asrlik ma'lumotlar to'planadi va qo'rquv konseptini lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari aniq ko'rinadi. Uzoq yillik ilmiy izlanishlarga qaramay, paremiologik birliklarga kiruvchi maqol, matal, naql, qanotli iboralar, aforizmlar, hikmatli so'zlar orasidagi aniq farqlarni belgilash masalasi bugungi kungacha ochiqsigicha qolmoqda. Ko'pgina tadqiqotchilar ularni sintaktik to'liqlik tamoyili, «paremiologik birliklar» atamasi ostida birlashtiruvchi xususiyatlar asosida farqlaydilar:

- Kelib chiqish manbai – asosan xalq ijodining mahsuli;
- Nutqda barqaror qo'llanilishi – o'zgarmas shaklda ishlatilishi;
- Hayotiy qonuniyatlarni umumlashtirishi va aks ettirishi;
- Nasihat va tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi;

Bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, yuqoridagi atamalarning an'anaviy farqlanishi asosiy ahamiyatga ega emas. Chunki biz frazeologik birliklar maqol va matallarning semantik tuzilish jihatidan farqini emas, balki tilda ifodalangan hayotiy qonuniyatlar, qo'rquvni aks ettiruvchi vaziyatlar, xalq tafakkuridagi qo'rquvga munosabat, qo'rquvga moyil odamlar haqidagi tasavvurlar va uni yengish bo'yicha

tavsiyalarni tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Shuning uchun tadqiqotimizda frazeologik birliklar va maqollarni paremiologik birliklar sifatida ko‘rib chiqamiz.

Paremiyalarni tasniflash mezoni sifatida biz fransuz va o‘zbek tillaridagi bir qancha maqol birliklarini birlashtiruvchi invariant ma’nolar (g‘oyalar) ni ajratib oldik. Maqollar bizga doimo o‘zining sodda ko‘rinishi bilan ta’sir ko‘rsatgan. Ular qisqa va lo‘nda bo‘lib, deyarli musiqiy tuzilishga ega. Biroq bu soddalik ortida keng qamrovli vaziyatlar va turli fikrlar yotadi. Aynan shu holat bizni fransuz va o‘zbek tillaridagi maqollar tahlilini o‘rganishga undadi. Biz ularni lingv madaniy va pragmatik jihatidan ishlash mexanizmini tushunishni maqsad qildik. Chunki fransuz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar. Ham fransuz, ham o‘zbek tillarida *“bir marta qo‘rquvni boshdan kechirgan odam hatto eng ahamiyatsiz narsalardan ham qo‘rqadi”* degan g‘oyani ifodalovchi maqollar mavjud. Fransuz tilida bu g‘oya zoomorfizmlar orqali ifodalanadi: *Chat échaudé craint l’eau froide* (kuygan mushuk sovuq suvdan qo‘rqadi). Bu maqol mushuk obrazi orqali inson psixologiyasini tasvirlaydi. Qaynoq suvdan kuygan mushuk endi hatto xavfsiz bo‘lgan sovuq suvdan ham qo‘rqadi, chunki u suvni og‘riq bilan bog‘laydi. Xo‘sh, insonlar ham xuddi shunday – avvalgi muammolar sababli yangi imkoniyatlardan qochishi mumkin.

O‘zbek tilida esa shunga mos keladigan bir nechta maqolni topish mumkin: Ot hurkkan yeridan o‘tmas, er – qo‘rqqan yeridan; Sutdan og‘zi kuygan, qatiqni ham puflab ichadi; Olovdan qo‘rqqan tutundan ham qochar;

1-qism: “Ot hurkkan yeridan o‘tmas”

Bu qismi zoomorfizm orqali berilgan ya’ni, hayvon, bu holatda – ot orqali inson xulq-atvorini ifodalash, ya’ni ot xavf sezgan joydan yurishdan bosh tortadi, chunki u instinkt orqali xatarni anglaydi. Bu holat insonning ham xavf-xatardan ehtiyot bo‘lishi kerakligi bildiradi.

2-qism. “Er – qo‘rqqan yeridan”

Bu yerda *to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxs* – “er”, ya’ni botir, aqlli, mard kishi ham

qo‘rqan (yoki xavfni sezgan) joyida ehtiyot bo‘ladi, uning qo‘rqishi – ojizlik emas, balki ongli ehtiyotkorlik sifatida ko‘rsatiladi. Bu psixologiyada qo‘rquvning adaptiv funksiyasi deb ataladi, ya’ni inson xavfli vaziyatni boshdan kechirgach, bundan keyin undan qochish uchun ehtiyotkorlik choralari ko‘radi (batafsil: Sherbatix 2001, Izard 2000).

Fransuz tilidagi “*Mieux vaut un lâche vivant qu’un héros mort*” (O‘lgan qahramondan ko‘ra tirik qo‘rqoq afzal) maqolida (*Dictionnaire de proverbes français*, 1999, 324 b.) hayotni saqlab qolish, tirik qolish – birinchi o‘rinda turishi kerak degan g‘oya bor. Qahramonlik, o‘limga tayyorlik qadrlansa–da, undan ko‘ra tiriklikni saqlash ustunroq deb baholanmoqda. Fransuz madaniyatida bu maqol ehtiyotkorlikni aqllilik sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda “qo‘rqoq” so‘zi salbiy emas, balki tirik qolgan, hayotni saqlab qolgan inson sifatida kontekstda ko‘riladi. O‘zbek tilidagi “*botir botir emas, jon saqlagan – botir*” (O‘zbek xalq maqollari, 1989, 456 b.) maqoli yuqoridagi fransuz maqoliga mos keladi. Bu yerda ham xuddi shunday g‘oya bor: haqiqiy botirlik – beaql xatarga yugurish emas, balki ongli ravishda jonini saqlash, hayotga ehtiyotkor qarash lozimligi aytiladi. O‘zbek maqollarida ham ehtiyotkorlik – aqlning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi. Shuningdek, bu maqolda “*botir*” tushunchasi qayta ta’riflanyapti: beg‘am, xavfni bilmagan odam emas, o‘zini asray bilgan inson haqiqiy botir, deyilyapti.

Har ikkala madaniyatda ham qo‘rquvni tabiiy qabul qilish zarurligi o‘z aksini topadi, ammo ba’zi maqollar qo‘rquvni yengib, xavfga tik boqish kerakligini uqtiradi. Fransuzcha “*La peur n’évite pas le danger*” maqoli o‘zbek tiliga “*Qo‘rquv xavf–xatarni bartaraf etmaydi*” deb tarjima qilinadi. Bu maqol inson hayotidagi muhim haqiqatni ifodalaydi: qo‘rquvning o‘zi muammolarni hal qilmaydi, balki ba’zan ularni yanada kuchaytirishi mumkin. Bu maqol odamlarni jasur bo‘lishga va qo‘rquvga berilmaslikka chorlaydi. Har qanday vaziyatda ham aql bilan yondashish, xatarni baholash va qat’iyat bilan harakat qilish muhimdir. Qo‘rquv insonni ehtiyotkorlikka undashi mumkin, ammo uning ortidan taslim bo‘lish yoki harakatsiz qolish – eng katta xatodir.

Qoʻrquvni oʻlim orqali anglash maqollarda ham oʻz ifodasini topgan. Bu mavzuga oid maqolalar har ikki tilda ham uchraydi, biroq qoʻrquvning kelib chiqish sababi sifatida oʻlimga boʻlgan munosabat taqqoslanayotgan lisoniy madaniyatlarda farqlanadi. Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi inson tafakkurida oʻlim – bu muqarrarlik boʻlib, mavjudlikning boshqa bir bosqichiga oʻtish sifatida qaraladi. Oʻlimdan qoʻrqish – insonning tabiiy hissi hisoblanadi, bunda oʻlim eng yuqori qoʻrquv shakli sifatida koʻrilmaydi: *Celui qui vit dans la peur est déjà prisonnier*.

Oʻzbek tilidagi “*bir boshga bir oʻlim*”, “*bir kun – tugʻilmoq, bir kun – oʻlmoq*”, “*qoʻrqoq oʻlmasdan burun oʻlar*” maqollari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Har kim hayotda bir marotaba oʻladi, oʻlimdan qochib boʻlmaydi, qoʻrqoq inson jisman tirik boʻlsa ham, doimiy qoʻrquvda yashaydi, doim qoʻrqib yashash – bu yashash emas. Jasorat va botirlik bilan yashash kerak, aks holda inson oʻz hayotini zoye qilgan boʻladi.

Fransuz oʻlim bilan bogʻliq maqollarda koʻproq falsafiy qarash kuzatiladi: “*La vie est la voie de la mort, la mort est la voie de la vie*”, yaʼni “*Hayot – oʻlim sari olib boradigan yoʻl, oʻlim esa – hayot sari yoʻldir*”. Bu maqol shuni anglatadiki, insonni oʻlimga olib boruvchi – hayotning oʻzi, ammo aynan oʻlim haqidagi fikr insonni toʻgʻri hayot kechirishga undaydi.

Fransuz tilidagi mashhur maqolalardan biri “*Les lâches meurent plusieurs fois avant leur mort ; le brave ne goûte jamais la mort qu’une fois*” (“*Qoʻrqoqlar oʻz oʻlimidan oldin bir necha marta oʻladi; mard esa faqat bir marta oʻlimni tatiydi*”) maqolida qoʻrqoq insonning doimiy xavotir, qoʻrquv va tahdid ichida yashashi u uchun ruhiy jihatdan koʻplab «*oʻlimlar*»ga teng ekani taʼkidlanadi. Mard kishi esa faqatgina haqiqiy xavf yuz berganda, yaʼni hayoti tugaganda oʻlimni kutadi – u ruhan sogʻlom, tinch va qatʼiyatli yashaydi.

Bu gʻoya oʻzbek maqollarida ham oʻz ifodasini topgan. xususan, “*Mard bir marta oʻlar, qoʻrqoq – yuz marta*” va “*Har kuni oʻlgandan, bir kunda oʻlgan yaxshi*” kabi xalq soʻzlarida qoʻrqoqlikning inson hayotini azobli va maʼnaviy jihatdan tushkun holatda oʻtkazishiga ishora qilingan. Qoʻrqoq har bir xavf–xatarni

o‘lim deb qabul qilgani sababli, u ruhan uzluksiz qiyinchilikda yashaydi. Aksincha, mard inson hayotni xos mazmuni bilan qabul qilib, u holatni yuzma–yuz qarshi oladi.

Taqqoslangan lisoniy madaniyatlarda *peur–qo‘rquv* konseptining shaxs harakatlarini nazorat qilish xususiyati ham kuzatiladi (qo‘rquvni manipulyatsiya vositasi sifatida ishlatish). Fransuz tilida: a) qo‘rquvning tarbiyaviy (moslashuvchan) funksiyasini ta’kidlab, qo‘rquvning ijobiy ta’sirini ajratib ko‘rsatadi. Inson uchun ijobiy qo‘rqish yaxshi maslahatdan ko‘ra qimmatroq: *n’est pas sage celui qui n’a peur d’un fou, la peur a bon pas, tout devient inintelligible pour qui a peur des idées, Nul n’est courageux s’il n’a jamais eu peur*, dushmaningdan qo‘rqma, munofiqdan qo‘rq, jalada qolgan yomg‘irdan qo‘rqmas, *qo‘rquv – donolikning boshlanishi*; b) insoniy xatti–harakatlarga salbiy ta’sir: *Celui qui a vu un serpent noir, a peur du bâton noir, Qui craint de souffrir, souffre de la crainte, Qo‘rqoqqa go‘r ham tor, qir ham tor, Qo‘rqoq ot o‘z soyasidan hurkar, Qo‘rqoq itning quyruq‘i qisiq*. v) qo‘rquvning neytral ta’siri: *Nul n’est courageux s’il n’a jamais eu peur*. Ishdan qo‘rqmagan – qishdan qo‘rqmas, Qo‘rqqandan hovliqqan yomon.

O‘zbek tilida qo‘rquvga oid maqollar, odatda, insonning ijtimoiy hayotidagi xatti–harakatlarini to‘g‘ri yo‘lga solishda nasihat xususiyatini kasb etadi. Qo‘rquvni muammolarga yechim yoki hayot mazmuniga aylantirish mumkin emas. Bunday maqollar ko‘proq hayot tajribasiga asoslangan hikmat va falsafiy ma’nolarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ba’zi hollarda qo‘rquvning inson hayotidagi ahamiyatini ochib beradi, boshqa hollarda esa insonni qo‘rquvdan xalos bo‘lib, jasoratli va matonatli bo‘lishga chorlaydi.

Fransuz tilidagi *“Il n’y a que les imbéciles qui n’ont pas peur”* – ya’ni, *“Faqat ahmoqlargina qo‘rqmaydi”*, degan ibora insonning qo‘rquv hissi aql va hayotiy tajriba bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Unda shunday ma’no borki, aqlli odam xavfni his etadi va shunga mos ravishda ehtiyotkorlik qiladi. O‘zbek xalq maqoli – *“Botir botirmas, jon saqlagan botir”* – esa xuddi shu g‘oyani milliy ruh va hayotiy

tajriba asosida ifoda etadi. Bu yerda ham haqiqiy jasorat o'z jonini asrab qolish, oqilona qaror qabul qilish bilan bag'rikenglikda, deb tushuniladi. Ikkala maqol ham shunga ishora qiladiki, qo'rquv – bu zaiflik emas, balki aql va ehtiyotkorlik belgisi. Faqatgina o'zini shubhasiz deb bilgan yoki voqelikni anglamagan inson qo'rqmasligi mumkin.

Qo'rquv inson ongida shakllanadigan tuyg'u hisoblanadi. Shu sababli hayotiy tajribaga ega, aql–idrok bilan ish tutadigan shaxslar bunday holatlarga osonlikcha berilmaydi. Ular xavf–xatarni anglagan holda, unga nisbatan to'g'ri munosabat bildirishadi – yolg'iz qo'rqmaslik emas, balki aql bilan yondashishni afzal ko'rishadi.

Bu haqiqat xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, fransuz maqolida: «*Le courage croît en osant et la peur en hésitant*» — ya'ni, “*Jasorat — harakatda, qo'rquv — ikkilanishda o'sadi*”, degan fikr botirlik va ehtiyotkorlik o'rtasidagi ichki kurashni ochib beradi.

O'zbek xalq maqollari ham tajribali insonning qo'rquvga berilmasligini tasdiqlaydi: “*Qari tovuq qarchig'aydan qo'rqmas*” – ya'ni, ko'pni ko'rgan inson osonlikcha xavotirga tushmaydi, yoki “*Qarg'ani qo'rqitsang, botir bo'lar*” – ya'ni, haqiqiy xavfni bilmagan inson o'zini botir deb hisoblashi mumkin. Bu maqollar shundan dalolat beradiki, qo'rquv – tajribasizlik va hech narsadan xabardor emaslikning oqibati bo'lishi mumkin, xolos. Aql va hayotiy tajriba esa insonni haqiqiy ma'noda jasur qiladi.

Mazkur yondashuv lingvomadaniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati bo'lib, turli xalqlar dunyoqarashida qo'rquvga nisbatan munosabat so'z ifodalari va maqollar orqali o'z ifodasini topadi. Qo'rquvning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati xalq tafakkurida turlicha baholanadi. Masalan, fransuz tilidagi “*La peur n'est pas un bon conseiller*” (*Qo'rquv – yaxshi maslahatchi emas*) iborasida qo'rquv insonning ongli faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, qaror qabul qilish jarayonida to'siq bo'ladigan holat sifatida tasvirlanadi. Bu yerda qo'rquv irodasizlik, shubha va passivlikka olib keluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, shu bilan birga, fransuz tilidagi yana bir maqol – *“La peur est une grande inventrice”* (*Qo‘rquv – buyuk ixtirochi*) – unga qarshi mutlaqo boshqa yondashuvni namoyon etadi. Unga ko‘ra, qo‘rquv insonni faollikka, yangilik yaratishga, xavfdan chiqish yo‘llarini izlashga majbur qiladigan kuch sifatida baholanadi. Ya’ni, qo‘rquv ayrim hollarda ijodiy faoliyat va ixtirochilikning turtkisiga aylanishi mumkin. Bu ikki qarama–qarshi ma’nolar shundan dalolat beradiki, qo‘rquv – inson ongida murakkab, ko‘p qirrali ravishda namoyon bo‘ladigan tuyg‘udir. Turli madaniyatlarda va kontekstlarda u yo salbiy, yo ijobiy kuch sifatida baholanishi mumkin.

Fransuz lingvistik madaniyatida qo‘rquv faqat oddiy emotsional holat emas, balki muayyan qiyofa, harakat va jismoniy xususiyatlarga ega subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U fransuz tilida inson hayotida faol ishtirok etuvchi obraz sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuvda qo‘rquv faqat hissiy reaksiya sifatida emas, balki pedagogik, ijodiy va jismoniy vazifalarni bajaruvchi faol kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Fransuz lingvistik ongida qo‘rquvga jismoniy belgilar ham nisbatan ko‘p qo‘llanadi. Masalan, *“La peur a de grands yeux”* (*Qo‘rquvning ko‘zlari katta*) va *“La peur a de longues oreilles”* (*Qo‘rquvning qulog‘i uzun*) kabi ifodalarda qo‘rquvni tez his qiladigan, hamma narsani ko‘radigan va eshitadigan jonli timsol sifatida qabul qilish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi. Bu obrazlar orqali qo‘rquv nafaqat hissiy, balki sezuvchan va kuzatuvchan subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu obrazlar orqali qo‘rquv faqat hissiy emas, balki intuitiv, sezuvchan, kuzatuvchan subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U voqealarni oldindan sezuvchi, insonni xavf–xatardan ogohlantiruvchi kuch sifatida faol talqin etiladi. Fransuz madaniyatida qo‘rquv ko‘pincha ratsional emas, balki irratsional, lekin foydali kuch sifatida qabul qilinadi – u insonni ehtiyotkorlikka chorlaydi, harakatlarini tahrir etadi va hayotida muhim qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Xalq maqolalari orqali qo‘rquv hissining paydo bo‘lishi, uning sabablari va oqibatlari teran ifodalanadi. Bu maqolalar qo‘rquvni faqat hissiy reaksiya sifatida

emas, balki muayyan hayotiy, ijtimoiy va ma'naviy jarayon bilan bog'liq holat sifatida talqin qiladi. Ayrim maqolalarda qo'rquvning o'zi emas, balki uning manbai, yuzaga kelish sabablari va insonning unga bo'lgan munosabati alohida o'rin tutadi. Masalan, fransuz xalq donoligidagi ba'zi ifoda va maqolalar shunga ishora qiladiki, qo'rquv haqidagi asosiy mulohaza uning kuch–quvvatida emas, balki inson ongida u qanday qabul qilinishida yotadi. Bunday iboralar fransuz xalqi dunyoqarashining emotsional jarayonlarga nisbatan ongli, tahlilchi, va ko'p hollarda tanqidiy munosabatini yaqqol namoyon etadi.

Masalan, *“Il faut savoir dominer sa peur”* (*Qo'rquvni boshqara bilish kerak*) yoki *“Ce n'est pas la peur qui tue, mais la panique”* (*Qo'rquv emas, balki vahima halok qiladi*) kabi iboralar orqali qo'rquvga bo'lgan munosabat ko'proq ichki nazorat, ruhiy muvozanat va aql bilan yondashish zaruriyatini o'rta qo'yadi. Bunday yondashuvda qo'rquv – muqarrar tuyg'u, lekin uning inson hayotiga ta'siri ongli munosabatga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bu orqali fransuz lingvomadaniy ongida qo'rquv tuyg'usi shaxsiy mas'uliyat, tajriba va aql–idrok bilan chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, xalq maqollari emotsional jarayonlarga nisbatan faqat hissiy emas, balki falsafiy va hayotiy tafakkur mahsuloti sifatida qaraladi.

Aytish joiz–ki, fransuz lingvistik an'anasida qo'rquv tushunchasi ko'p qirrali va semantik jihatdan boy tasvirlarga ega. Uning timsoliy, harakatchan va jismoniy tasvirlari orqali xalqning nafaqat qo'rquvga, balki umumiy hayot tajribasiga nisbatan yondashuvi ham namoyon bo'ladi. Bu holat milliy mentalitet va lingvomadaniy o'zlikni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Fransuz tilidagi maqollar fondida qo'rquv tuyg'usini yuzaga keltiruvchi sabablar keng qamrovda aks etgan bo'lib, ular xalq tafakkuri va madaniy qadriyatlarining yaqqol ifodasidir. Bu maqolalar orqali qo'rquv faqat tashqi tahdidlar bilan emas, balki inson ongida mavjud subyektiv ildizlar bilan ham bog'liq ekani namoyon bo'ladi.

Masalan, *“La peur est mauvaise conseillère”* (*“Qo'rquv yomon*

maslahatchidir”) maqoli qo‘rquvning inson qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Bunday maqolalar xalqning qo‘rquvni nafaqat real tahdidlarga nisbatan, balki ichki psixologik holatlar orqali ham qabul qilishini ko‘rsatadi. Shu orqali qo‘rquvning milliy mentalitet va madaniy ongdagi o‘rni ochib beriladi. Fransuz til madaniyatida qo‘rquv paydo bo‘lishining eng keng tarqalgan sabablaridan biri – voqelikdagi tahdiddan ko‘ra kattaroq qilib tasavvur etilgan xatar hissidir. Bu tendensiyaning *La peur grossit les objets* (“Qo‘rquv narsalarni kattaroq qilib ko‘rsatadi”) va *Plus de peur que de mal* (“Qo‘rquv – o‘zining sababidan ham kattaroq”) kabi maqolalar yaqqol ifodalaydi. Ular orqali inson ongidagi bo‘rttirilgan, irratsional qo‘rquvning tabiati ochib beriladi.

Shuningdek, ayrim maqolalarda qo‘rquvning aslida real tahdidga asoslanmasligi, inson esa shu irratsional qo‘rquv ta‘sirida o‘zini xavf ostida deb hisoblashi tasvirlanadi. Masalan, *Qui craint de souffrir, souffre de la crainte* (“Azoblanishdan qo‘rqqan kishi qo‘rquvning o‘zi bilan azoblanadi”) va *Il ne faut jamais trembler qu’on ne voie sa tête à ses pieds* (“Qo‘rquvdan titrash kerak emas, aks holda odam o‘z tanasini yerda yotganday ko‘radi”) kabi maqolalarda shunday holatlar aks ettiriladi. Bundan tashqari, ba‘zi maqolalarda qo‘rquvning asossizligi insonni aynan shu xavf sari yetaklashi mumkinligi ta‘kidlanadi. *Le trop d’attention qu’on a pour le danger fait le plus souvent qu’on y tombe* (“Xavf haqida ortiqcha o‘ylash insonni aynan shu xavfga duchor qiladi”) maqoli irratsional qo‘rquv inson xatti–harakatini qanday o‘zgartirishi mumkinligini yaqqol ifoda etadi.

Bu maqolalarda qo‘rquv hissi sababligi orqali nafaqat emotsional holat, balki uning ongli ravishda qanday shakllanishi, inson tasavvurida qanday bog‘lanishlari va oqibatlari namoyon etiladi. Fransuz xalq maqolalarida qo‘rquv – bu o‘z oldiga mustaqil tahlil qilish va yondashishni talab qiluvchi murakkab, ko‘p qirrali holat sifatida baholanadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, fransuz va o‘zbek tillarida qo‘rquv va jasorat mavzularidagi maqollar ko‘p hollarda yonma–yon yuradi. Bu holat har ikkala xalqning milliy tafakkurida qo‘rquv va jasorat o‘zaro bog‘liq, bir–biriga zid, ammo muvozanatdagi ma’naviy tushunchalar sifatida

qaralishi bilan izohlanadi. Maqolalarda qoʻrquv inson feʼl-atvorining bir qismi sifatida baholanar ekan, jasorat esa uni yengish, yuraklilik bilan muammolarga qarshi turish qobiliyati sifatida tasvirlanadi.

Masalan, oʻzbek tilidagi “*Qoʻrqoq ming oʻlguncha, botir bir oʻladi*”, “*Jasur yigit jangda bilinar*” kabi maqolalar qoʻrquvni yengish orqali haqiqiy jasorat namoyon boʻlishini taʼkidlaydi. Shu bilan birga, fransuz tilidagi “*La peur est naturelle, mais le courage la dépasse*” (*Qoʻrquv tabiiy, lekin jasorat uni yengadi*) yoki “*Il n’y a pas de courage sans peur*” (*Qoʻrquvsiz jasorat boʻlmaydi*) kabi maqolalarda ham xuddi shunday mazmun yaqqol koʻzga tashlanadi.

Munozaralar. Bu oʻxshashliklar har ikki madaniyatda ham inson ichki dunyosida kechadigan ziddiyatlarni falsafiy va amaliy jihatdan anglash, ularni maqollar orqali tarbiyaviy vosita sifatida qoʻllash anʼanasi mavjudligini koʻrsatadi. Demak, qoʻrquv va jasorat haqidagi maqolalar nafaqat alohida, balki oʻzaro mulohazali munosabatda tahlil qilinadigan lingvomadaniy fenomenlardir.

Fransuz va oʻzbek tillarida “qoʻrqoqlik” tushunchasi mustaqil maʼno yukiga ega boʻlish bilan birga, u orqali jasorat, shijoat, botirlik kabi fazilatlarni anglatuvchi muqobil tushunchalar ham tavsiflanadi. Fransuz tilida qoʻrqoqlik koʻpincha tanqidiy ruhda tasvirlanadi. “*Il n’y a pas de médecin pour la peur*”, “*Un hypochondriaque ne saurait être soigné*”. Bu yerda qoʻrqoqlik insonni hayotdagi tabiiy jarayonlarga qarshi toʻgʻri munosabatdan mahrum qiladigan salbiy sifat sifatida baholanadi.

Oʻzbek tilida ham qoʻrqoqlik keng tarqalgan maqollar orqali tanqid etiladi. Masalan, qoʻrqoq qochib qutulmas maqolida qoʻrqoq insonning faol hayotda orqa safga siqilib qolishi, tashabbussiz va passiv feʼl-atvorga ega ekani koʻrsatiladi. Bu borada qoʻrqoqlik jasoratning ziddi sifatida qaraladi va ijtimoiy ragʻbatlantirilmaydi. Shu bilan birga, fransuz lingvistik ongida qoʻrqoqlikka nisbatan maʼlum darajada “oqlash” tendensiyasi ham kuzatiladi. Masalan, *La peur a bon pas* maqolida insonning xavfdan qochishi ayb sifatida emas, balki hayotni saqlashning oqilona shakli sifatida baholanadi. Bu orqali qoʻrquvning baʼzan ratsional va hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqishi eʼtirof etiladi.

XULOSA

Shunday qilib, qoʻrqoqlikka bagʻishlangan maqolalarda har ikki tilda ham ushbu xislatga turlicha yondashuv kuzatiladi: oʻzbek tilida – qatʼiy qoralash va psixologik tanqid orqali, fransuz tilida esa – rad etish bilan birga muayyan sharoitlarda qoʻrquvning oqlanishi orqali. Bu holat har bir xalqning lingvomadaniy tafakkuri va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

1–jadval. Parmemiologik birliklar qiyosiy tahlili

№	Mavzuviy guruh	Fransuz paremiologik birligi	Oʻzbek paremiologik birligi	Lingvomadaniy va pragmatik izoh
1	Bir marta qoʻrqqan odam, har narsadan qoʻrqadi	Chat échaudé craint l'eau froide – Kuygan mushuk sovuq suvdan ham qoʻrqadi	Sutdan ogʻzi kuygan, qatqni ham puflab ichadi Ot hurkkan yeridan oʻtmas, Er – qoʻrqqan yeridan	Zoomorfizmlar orqali insonning ehtiyotkorlik psixologiyasi ifoda etilgan. Tajriba – qoʻrquvga sabab.
2	Hayotni saqlash – qahramonlikka teng	Mieux vaut un lâche vivant qu'un héros mort – Tirik qoʻrqoq oʻlgan qahramondan yaxshiroq	Botir botir emas, jon saqlagan – botir	Qoʻrquv aql va ehtiyotkorlik bilan bogʻlangan. Tirik qolish – mardlikning koʻrinishi.
3	Qoʻrquv muammoni hal qilmaydi	La peur n'évite pas le danger – Qoʻrquv xavfni bartaraf etmaydi		Qoʻrquv – muammodan qochish emas, balki uni yengish zarurligini bildiruvchi gʻoya.
4	Qoʻrquv va oʻlim munosabati	Les lâches meurent plusieurs fois avant leur mort – Qoʻrqoqlar bir necha marta oʻladi	Qoʻrqoq oʻlmasdan oldin oʻlar, Mard bir marta oʻlar, qoʻrqoq – yuz marta	Qoʻrquv – doimiy ruhiy azob, mard inson faqat bir marta oʻladi.
5	Oʻlimga falsafiy yondashuv	La vie est la voie de la mort, la mort est la voie de la vie – Hayot va oʻlim bir-biriga bogʻliq	Bir boshga bir oʻlim, Bir kun – tugʻilmoq, bir kun – oʻlmoq	Fransuz madaniyatida oʻlim – hayotning bir qismi, oʻzbekda – taqdirga itoat.
6	Qoʻrquv – shaxs xatti-harakatiga taʼsir qiluvchi omil	Qui craint de souffrir, souffre de la crainte – Qiynalishdan qoʻrqqan, qoʻrquvdan qiynaladi	Qoʻrqoq itning quyruqʻi qisiq, Qoʻrqoq ot oʻz soyasidan hurkar	Qoʻrquv – xatti-harakatiga taʼsir qiluvchi omil. U ijobiy ham, salbiy ham natijalar berishi mumkin.

7	Qoʻrquv – aqlning belgisi	Il n'y a que les imbéciles qui n'ont pas peur – Faqat ahmoqlargina qoʻrqmaydi	Qoʻrquv – donolikning boshlanishi,	Qoʻrquv – insonning aql, ehtiyot va hayotiy tajribasining belgisi sifatida baholangan.
			Jalada qolgan yomgʻirdan qoʻrqmas,	

Fransuz va oʻzbek xalqlarining ogʻzaki ijodida qoʻrquv konsepti koʻplab paremiologik birliklar orqali ifoda topgan boʻlib, ular xalq tafakkuri, hayot falsafasi va qadriyatlarini yoritadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, lingvomadaniy yondashuv va semantik izoh usullari qoʻllanildi. Maqollar fransuz va oʻzbek tillarida tematik guruhlariga ajratilib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari solishtirildi. Zoomorfizmlar, metaforalar, axloqiy xulosa va falsafiy mazmun tahlilning asosiy yoʻnalishlarini tashkil etdi.

Qoʻrquv fransuz va oʻzbek paremiologiyasida semantik jihatdan umumiylikka ega: u ehtiyotkorlik, tajriba va hayot falsafasi bilan bogʻlangan. Shu bilan birga, pragmatik talqin farqlidir: fransuz madaniyatida qoʻrquv koʻproq falsafiy va psixologik jihatdan, oʻzbek madaniyatida esa axloqiy–nasihat shaklida namoyon boʻladi. Qoʻrquv hissi inson ruhiyatining eng qadimiy va kuchli emotsional holatlaridan biridir. U ijtimoiy xulq–atvorni shakllantirishda, xavfsizlikni taʼminlashda va hayotiy qarorlar qabul qilishda muhim rol oʻynaydi. Bu hissiyotning xalq maqollarida aks etishi uning madaniyat, mentalitet va tajriba bilan qanchalik chuqur bogʻliqligini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Le Petit Robert. *Dictionnaire de la langue française*. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 2004.
2. González Rey, M. *La paremiología: límites y problemas*. – Madrid: Universidad Complutense, 2002.
3. Zuluaga, A. *Estudios de paremiología y fraseología*. – Bogotá: Universidad Nacional de Colombia, 2001.
4. Cazares, J., & Wotjak, G. *Proverbios y expresiones idiomáticas: clasificación y análisis*. – Madrid: Gredos, 1998.

5. Sevilla Muñoz, J. *Fraseología y paremiología: puntos de contacto.*– Salamanca: Ediciones Universidad de Salamanca, 2003.
6. *Dictionnaire de proverbes français.* – Paris: Larousse, 1999.
7. *O‘zbek xalq maqollari.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989.
8. Бабаскина, Т. Н. *Паремиологические единицы как часть фразеологического фонда языка.* Издательство МГУ, 2002.
9. Красавский, В. А. *Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах.* ВГУ. 2001.
10. Коробка, И. П. *Пословицы и поговорки как средство вербализации концептов.* Наукова Думка. 1999.

REFERENCE

1. Le Petit Robert. (2004). *Dictionnaire de la langue française* (2784 p.). Paris: Dictionnaires Le Robert.
2. González Rey, M. (2002). *La paremiología: límites y problemas.* Madrid: Universidad Complutense.
3. Zuluaga, A. (2001). *Estudios de paremiología y fraseología.* Bogotá: Universidad Nacional de Colombia.
4. Cazares, J., & Wotjak, G. (1998). *Proverbios y expresiones idiomáticas: clasificación y análisis.* Madrid: Gredos.
5. Sevilla Muñoz, J. (2003). *Fraseología y paremiología: puntos de contacto.* Salamanca: Ediciones Universidad de Salamanca.
6. *Dictionnaire de proverbes français.* (1999). Paris: Larousse.
7. Uzbek folk proverbs. (1989). Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House.
8. Бабаскина, Т. Н. (2002). *Паремиологические единицы как часть фразеологического фонда языка.* Издательство МГУ.
9. Красавский, В. А. (2001). *Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах.* ВГУ.
10. Коробка, И. П. (1999). *Пословицы и поговорки как средство вербализации концептов.* Наукова Думка.